*Navoiy viloyati statistika boshqarmasi*

# Korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

**2018 yil yanvar–avgust holatiga**

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1261 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0.4 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1108 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-avgust oyida viloyatda 1473 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 507 taga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,8 % ga kamaygan hamda ular ning soni 365 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1102 ta (11,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10571 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (29,1 %), Karmana (17,4%), Qiziltepa (11,1 %) va Xatirchi (10,2 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda*




## *Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi*

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)*

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|---|---|---|---|---|
| | birlik | jamiga nisbatan % | birlik | jamiga nisbatan % |
| **Navoiy viloyati** | **10863** | **100,0** | **10571** | **100,0** |
| Navoiy shahar | 3237 | 29,8 | 3078 | 29,1 |
| Zarafshon shahar | 674 | 6,2 | 656 | 6,2 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Konimex | 332 | 3,1 | 321 | 3,0 |
| Qiziltepa | 1206 | 11,1 | 1177 | 11,1 |
| Navbahor | 947 | 8,7 | 932 | 8,8 |
| Karmana | 1862 | 17,1 | 1839 | 17,4 |
| Nurota | 909 | 8,4 | 896 | 8,5 |
| Tomdi | 190 | 1,7 | 184 | 1,7 |
| Uchquduq | 411 | 3,8 | 408 | 3,9 |
| Xatirchi | 1095 | 10,1 | 1080 | 10,3 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,7 % savdoda, 15,9 % sanoatda, 9,1 % qurulishda, 11,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,0 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,**
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) % da*




***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi***
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda*



2018 yil yanvar-avgust holatiga 1473 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 52,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (335 ta), Karmana (214 ta), Nurota (167 ta), Zarafshon shahrida (157 ta) va Xatirchi tumanlarida (155 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (78 ta), Konimex (56 ta) hamda Tomdi (30 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni,** birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (256 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (247 ta), savdoda (217 ta) va qurilishda (168 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (27 ta), axborot va aloqada (34 ta) hamda tashish va saqlashda (50 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

| | 2017 yil yanvar-avgust hola-tiga | 2018 yil yanvar-avgust holati-ga |
|---|---|---|
| **Jami:** | **966** | **1473** |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 227 | 247 |
| Sanoat | 191 | 256 |
| Qurilish | 74 | 168 |
| Savdo | 163 | 217 |
| Tashish va saqlash | 57 | 50 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 117 | 140 |
| Axborot va aloqa | 11 | 34 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 17 | 27 |
| Boshqa turlari | 109 | 334 |

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 sentyabr holatiga 8560 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3339 ta, oilaviy korxonalar – 632 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4348 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 21 tani va boshqalar 220 tani tashkil etadi.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 83 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan
22 taga yoki 36,1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 55 tasi qo'shma korxonalar, 28 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi,** birlikda




**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni,** birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar 31 ta (37,3 %), Karmana tumani 21 ta (25,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Tomdi tumani 1 ta (1,2 %), Uchquduq va Konimex tumanlari 2 ta (2,4 %), Xatirchi tumani 3 ta (3,6 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni,** birlikda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma’lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko’rsak eng ko’p sanoatda 50 ta (60,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 12 ta(14,5 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa savdoda 6 ta (7,2 %) hamda boshqa faoliyat turlari-da esa 8 ta (9,7 %), tashish va saqlashda 3 ta (3,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta (3,6 %) va qurilishda 1 ta (1,2 %) tashkil qilgan. Shundan ko’rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning aso-siy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to’gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qurilish hamda tashish va saqlash faoliyat turlari-ga to’gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha ulushi,** % da



2018 yilning yanvar-avgust oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 22 tani tashkil qilgan. Bu ko’rsatkich esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga ko’paygan yoki 11,0 baravarga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-3 ta, Eron Islom Respublikasi-2 ta va Janubiy Koreya Respublikasi– 3 ta yangi korxonalar ro’yxatdan o’tgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni,** (yanvar-avgust holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 9 ta, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi faoliyatida 6 ta, savdoda 2 ta, yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlarda 1 ta, boshqalarda 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni,** birlikda



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 8485 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 14,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2582 tasi (30,4 %) Navoiy shahriga, 1585 tasi (18,7 %) Karmana, 946 tasi (11,1 %) Qiziltepa hamda 762 tasi (9,0 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'gri keladi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi,** birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8485 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2074 tasi (24,4 %) – savdoda, 1660 tasi (19,6 %) - sanoatda, 959 tasi (11,3 %) - qurilishda, 1152 tasi (13,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 791 tasi (9,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 406 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 139 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 161 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1143 tasi (13,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi,** % da




2018 yil yanvar-avgust holatiga 1262 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 37,0 % ga ko’proqdir. Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiyshahrida (289 ta), Karmana (169 ta), Nurota (162 ta) tumanlarida va Zarafshonshahrida (152 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (61 ta), Konimex (52 ta) hamda Tomdi (25 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko’pi savdoda (217 ta), sanoatda (256 ta), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida (246 ta) va qurilishda (168 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (27 ta), axborot va aloqada (34 ta) hamda tashish va saqlashda (50 ta) tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi,** % da




## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 650 tani tashkil etib, ulardan 632 tasi yoki 97,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **36,6** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

**Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi,** birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 21,0 % yoki 133 tasi sanoat, 22,6 % yoki 143 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,5 % yoki 117 tasi savdo, 25,0 % yoki 158 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,3 % yoki 8 tasi qurilish, 1,1 % yoki 7 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 2,2 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,2 % yoki 45 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,** % da




Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul:
S. Doniyev
(0436)2236247